

1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK
VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(4-hafta)



1-keys. “Kelajakdagi mo‘jizaviy kashfiyot”



Vaziyat:

Azizbek robototexnika to‘garagida kichik robot loyihasini yasadi. U kelajakda katta muhandis bo‘lib, insonlar og‘irini yengil qiladigan yangi qurilmalar kashf etishni orzu qiladi.



Savollar:

1 Siz kelajakda Vatanimiz taraqqiyoti uchun qanday yangi loyiha yoki kashfiyot qilmoqchisiz?

2 Muhandis, IT-mutaxassis va olimlar mamlakatimizga qanday foyda keltiradi?

3 Yaxshi kashfiyotchi bo‘lish uchun qaysi fanlarni chuqur o‘rganish kerak?



Topshiriq:

Kelajakda o‘zingiz yaratmoqchi bo‘lgan 1 ta foydali qurilma yoki loyiha nomini va vazifasini yozing.

1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(4-hafta)



2-keys. “O‘zbekistonning kelajak xaritasi”



Vaziyat:

Zilola darsda O‘zbekiston xaritasiga qarab, kelajakda mamlakatimizning barcha hududlarida zamonaviy zavodlar, yashil parklar va tezkor poyezdlar ko‘payishini aytdi.



Savollar:

O‘zbekistonning kelajakdagi rivojlanishida qaysi sohalar muhim deb o‘ylaysiz?

1

Mamlakatimiz taraqqiyoti faqat binolarga bog‘liqmi yoki bilimli insonlargami? Nega?

2

3

Siz o‘z qishlog‘ingiz yoki shahringiz kelajakda qanday bo‘lishini xohlaysiz?



Topshiriq:

“Mening kelajakdagi O‘zbekistonim” mavzusida 4–5 jumlati qisqa matn yozing.

